



POLAND



POLAND

**O'ZBEKISTON SSR DA MA'MURIY BUYRUQBOZLIK TIZIMI
O'RNATILISHI VA MUSTAHKAMLANISHI.****Abdulxay Gulchexra**GulDU Tarix kafedrası
dotsenti**Abdullayev Azamat**

2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15211923>

Annotatsiya. Ushbu maqolada SSSR da ma'muriy buyruqbozlik tizimining shakllanishi va uni O'zbekiston SSRda joriy etilishi, mustahkamlanib borishi haqida so'z yuritiladi. Kollektivlashtirish va uning oqibatlari tahlil qilinadi. Hamda ikkinchi jahon urushi davrida harbiy buyruqbozlikka o'tilishi keltiriladi

Kalit so'zlar. SSSR, O'zbekiston SSR, NEP, O'zKP, KP MIQ, Kollektivlashtirish, Katta terror, Paxta ishi.

O'zbekiston SSR tashkil topganda uni boshqarishda to'g'ridan to'g'ri SSSRdagi ma'muriy buyruqbozlik tizimi asosida boshqarilish joriy etildi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimi 1924- yidagi hududiy bo'linish natijasida tashkil etilga barcha mustamlakalarida joriy etilgandi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimining salbiy oqibatlari hozirgi kunda ham mamlakatimizda mavjud va bu rivojlanishga ma'lum ma'noda to'siq ham bo'ldi. Maqolamizda O'zbekiston SSR dagi ma'muriy buyruqbozlik tizimi qay tarzda olib borilganligi va bu qanday oqibatlarga olib kelganligi haqida so'z yuritamiz.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi SSSRda XX asrning 1920-yillar oxiri – 1930-yillar boshlarida shakllangan. Bu tizim iqtisodiyot va jamiyatni qat'iy markazlashgan boshqaruv ostida ushlab turish tamoyiliga asoslangan bo'lib, davlat tomonidan barcha siyosiy va iqtisodiy qarorlarni qabul qilishni nazarda tutgan. Ma'muriy buyruqbozlik tizimining shakllanishini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin. Bular quyidagilar.

1. Boshlang'ich bosqich (1917-1924 yillar).

1917-yilgi Oktyabr inqilobidan so'ng sovet hukumati iqtisodiyotni nazoratga olishga kirishdi. "Harbiy kommunizm" siyosati doirasida davlat barcha ishlab chiqarish vositalarini milliylashtirdi va markazlashgan boshqaruvni o'rnatdi. 1921-yilda YIS (Yangi iqtisodiy siyosat) joriy etilib, bozor munosabatlariga qisman erkinlik berildi, lekin bu uzoq davom etmadi.

2. Sanoatlashtirish va kollektivlashtirish (1928-1937 yillar).

1928-yildan boshlab Iosif Stalin YIS siyosatini tugatdi va majburiy sanoatlashtirishni boshladi. Xo'jalik yuritish tizimi rejalashtirish tamoyillariga asoslanib, Markaziy Reja qo'mitasi (Gosplan) boshchiligidagi qattiq davlat



nazoratiga olindi. 1929-1933 yillardagi majburiy kollektivlashtirish natijasida dehqon xo'jaliklari yo'q qilinib, hamma yerni davlat nazoratidagi kolxoz va sovxozlarga birlashtirish boshlandi.

3. Buyruqbozlik tizimining mustahkamlanishi (1937-1953).

1937-1938-yillarda "Katta terror" davrida boshqaruv apparatida shaxsiy sodiqlikka asoslangan qattiq nazorat joriy qilindi. Davlat rejalashtirish organlari, jumladan Gosplan, qattiq markazlashgan boshqaruv tizimini yo'lga qo'ydi. Tashabbus va erkin bozor munosabatlari yo'q qilinib, iqtisodiy qarorlar faqat markaziy hukumat tomonidan qabul qilina boshlandi. Yuqorida keltirilgan bosqichlardavomida ma'muriy buyruqbozlik tizimi to'liq shakillandi. Bu jarayon mustamlakalarda ham xuddi shu tarzda mustahkamlanib bortni. Xususan O'zbekiston SSR da ham.

1924-yilda Stalinning qarori asosida O'rta Osiyoda milliy huduiy chegaralanish o'tkazildi. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi natijasida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tugatilib, uning hududi yangi tuzilgan O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, shuningdek, Qoraqirg'iz avtonom viloyati, Qoraqalpoq avtonom viloyati tarkibiga kiritildi.

Umumo'zbek sovetlarining Buxoroda bo'lgan birinchi qurultoyi (1925-yil 13-17-fevral)da "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risida deklaratsiya" qabul qilindi. Qurultoyda respublikaning oliy organlari: O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (O'zbekiston SSR MIK) va O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti (O'zbekiston SSR XKS tuzilgan).

O'zbekiston SSR siyosiy hayotida O'zkompartiya (1925-yil fevralda Buxoroda tuzilgan) yetakchi rol o'ynagan. O'zSSR da hokimiyatning qonun chiqaruvchi oliy organi - O'zSSR Oliy Soveti (1937-yildan) hamda ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi - O'zSSR Ministrlar Soveti (1946-yildan) hisoblangan. Davlat hokimiyatining mahalliy organlari - 2,5 yilga saylanadigan xalq deputatlarining oblast, rayon, shahar, posyolka, qishloq va ovul sovetlari bo'lgan. Biroq amalda hokimiyat Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi (KPSS)ning respublikadagi bo'limi - O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi va markaz gumashtalari qo'lida bo'lgan. O'zKP e'tiborini sovet hokimiyatini mustahkamlashga, bosmachilik va mahalliy mulkdorlarga qarshi kurashga, sotsialistik industrilashtirishni amalga oshirishga, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishga, madaniy inqilobni o'tkazishga qaratgan.



O'zbekiston SSR tashkil qilinganidan so'ng respublika davlat boshqaruvi organlari Ittifoq organlari tartibida va ulardan andoza olingan holda tuzilgan. Bu ittifoqdosh respublikalarning markazdan turib boshqarishning eng oson va oddiy, shu bilan birga mustahkam shakli edi. Shu tariqa o'lkamiz hududlarida ma'muriy buyruqbozlik tizimi o'rnatildi va mustahkamlandi. Ma'muriy buyruqbozlik boshqaruvining asosiy elementlaridan biri bu kollektivlashtirish siyosati edi.

Kollektivlashtirish SSSRning 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida qishloq xo'jaligini davlat nazoratiga olish maqsadida amalga oshirgan siyosiy-iqtisodiy islohoti edi. Bu jarayon dehqonlarni jamoaviy xo'jaliklarga (kolxoz va sovxozlarga) majburan birlashtirish va xususiy mulkchilikni tugatishni o'z ichiga oldi. O'zbekiston SSRda bu siyosat o'ziga xos tarzda olib borildi, chunki respublika Sovet Ittifoqining asosiy paxta yetkazib beruvchilaridan biri edi. Shu sababli ham bu jarayonni 2 bosqichda amalga oshirildi;

1. Tayyorgarlik davri (1927–1929)

Bu bosqichda Sovet hukumati kollektivlashtirish jarayoniga zamin yaratish uchun dastlabki siyosiy va iqtisodiy choralarni ko'ra boshladi. Qishloq xo'jaligida kooperativlashtirish targ'iboti 1927–1928-yillarda Sovet hukumati qishloqlarda "kooperativlashtirish" nomi ostida kichik dehqon xo'jaliklarini birlashtirishni targ'ib qila boshladi. Dehqonlarga jamoaviy xo'jaliklar iqtisodiy jihatdan foydali ekanligi tushuntirilardi. Ayrim dehqonlar o'z ixtiyori bilan kollektiv xo'jaliklarga qo'shilgan bo'lsa ham, aksariyat qishloq aholisi bunday o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatdi. Sovet hukumati qishloqda "sinflarga bo'lish" tamoyilini ilgari surdi. Bu tamoyilga ko'ra, dehqonlar uch guruhga ajratildi:

1. Kambag'allar – hech qanday yeri yo'q yoki juda oz miqdordagi yerga ega bo'lgan dehqonlar.

2. O'rta hol dehqonlar – o'z yeriga egalik qiluvchi lekin ishchi yollamaydigan dehqonlar.

3. Boy dehqonlar – katta yer maydonlariga ega, yollanma ishchi ishlatadigan yoki savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan dehqonlar.

Stalin boshchiligidagi Sovet hukumati "quloqlar sinf sifatida yo'q qilinishi kerak" degan siyosatni boshladi. Bu siyosat natijasida minglab boy dehqonlar mol-mulkidan mahrum qilindi, qamoqqa olindi yoki surgun qilindi.

2. Asosiy bosqich (1929–1932)



1929-yildan boshlab kollektivlashtirish majburlash yo'li bilan amalga oshirildi. Dehqonlar o'z yerlarini davlatga topshirib, kolxozga a'zo bo'lishga majburlandi. Ko'pchilik dehqonlar bu qarorga qarshilik ko'rsatdi, ammo mahalliy partiya organlari ularni zo'ravonlik bilan qo'shishga harakat qildilar. Kolxozlashtirish siyosati natijasida o'lkadagi barcha dehqonlar yagona tarmoqqa birlashtirildi. Natijada dehqonlarda mahsuldorlik kamayib ketdi, ya'ni o'z yerlaridan mahrum bo'lgan dehqonlar, ya'ni berib mehnat qilmay qo'yidilar. Ular oilasi uchun yerlarida qo'shimcha mehnat qilar edi. Buning oqibatida, bozorlarda ortiqcha mahsulotlar paydo bo'lar edi. Kollektivlashtirish siyosati natijasida barcha dehqonlar bir xil mehnat qilar va bir xil maosh olar edi. Bu ma'muriy buyruqbozlik tizimining iqtisodiyotga qanchalik yomon ta'sir etganligini ko'rsatadi.

Mamuriy buyruqbozlik tizimi urush yillarida nihoyatda kuchaydi va bu harbiy buyruqbozlik tizimiga aylantirildi.

Urush boshlanganidan keyin O'zbekiston SSR ham SSSRning umumiy harbiy siyosatiga mos ravishda harakat qildi. 1941-yilning yozida O'zbekiston Kommunistik partiyasining Markaziy Qo'mitasi va mahalliy hokimiyat organlari SSSR Oliy Kengashining Favqulodda Qarorlarini bajarishga majbur bo'ldi. Ya'ni harbiy holat e'lon qilinishi, harbiy xizmatga safarbarlik, harbiy ishlab chiqarish uchun resurslarni safarbar etish, davlat nazoratining kuchaytirilishi kabi masalalarni o'z ichiga oldi.

Bu jarayonda O'zbekiston SSRda fuqaro boshqaruvi harbiy boshqaruv tizimiga bo'ysundirilgan holda ishladi.

O'zbekiston urush yillarida SSSRning orqa front hududiga aylangani sababli harbiy buyruqbozlik tizimi barcha sohalarga ta'sir o'tkazdi. Jumladan:

Ishlab chiqarish: Korxonalar, ayniqsa, harbiy sanoat korxonalari harbiy buyruqlarga asosan ish yuritdi. Ishchilar ham harbiy tartibga solingan mehnat sharoitida ishlashga majbur bo'ldi. Masalan, ko'plab sanoat korxonalari harbiy texnika ishlab chiqarish yoki front uchun zarur bo'lgan boshqa mahsulotlarni tayyorlashga o'tkazildi.

Qishloq xo'jaligida ham harbiy buyruqbozlik tizimi o'rnatildi. Dehqonchilik va chorvachilik, harbiy buyruqlar asosida tashkil etildi. Dehqonlar yetishtirgan mahsulotlarning deyarli barchasi urush maydonlariga jo'natildi. Hattoki ana shunday mehnat kuchi yetishmaydigan vaziyatda ham dehqonlarga mahsulot yetishtirish miqdori belgilab



qo'yilgan edi. Belgilangan miqdorlar esa nihoyatda yuqori edi. Agarda belgilangan miqdorlar bajarilmasa Kolxoz va Sabhoz rahbarlari jazolangan.

Harbiy xizmatga safarbarlik ham nihoyatda qattiq nazorat ostida amalga oshirilgan. Natijada O'zbekiston SSRdan 1,5 milliondan ortiq kishi urushga safarbar etildi. Harbiy komissariatlar qat'iy buyruqbozlik tizimi asosida ishladi, safarbarlik rejasini bajarmagan rahbarlar jazolandi.

Urush davrida O'zbekistonda SSRda matbuot, radio va boshqa axborot vositalari to'liq harbiy senzura nazoratiga o'tkazildi. NKVD (Ichki ishlar xalq komissarligi) va boshqa xavfsizlik organlari harbiy buyruqbozlik tizimini nazorat qilishda muhim rol o'ynadi. Har qanday norozilik yoki rejaga zid harakat qattiq jazolandi. Mahalliy boshqaruv idoralari Moskva buyruqlarini so'zsiz bajarishga majbur bo'ldi. Urushdan keyin hokimyatga Xurushchov kelgandan keyin .U ma'muriy buyruqbozlik tizimini biroz bo'lsada yumshatishga harakat qildi. Xurushchovni ma'muriy buyruqbozlik tizimini yumshatishga qilgan harakatlari ayrim salbiy oqibatlariga ham olib keldi. Shubhasiz bu O'zbekiston SSR ga ham ta'sir etdi.

Xususan 1957-yilda Xrushchov Sovnarxozlar (Xalq xo'jaligi kengashlari) tizimini joriy qildi. Bu tizim markazdan mustaqilroq iqtisodiy boshqaruvni nazarda tutgan bo'lsa-da, amalda qog'ozdagina bo'lib qoldi.

O'zbekiston SSRda ham sanoat va qishloq xo'jaligini boshqarish uchun Sovnarxozlar tashkil etildi, biroq ular markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'la olmadi. Xrushchov paxta ekiladigan yer maydonlarini kengaytirishni ham talab qildi. Natijada, O'zbekiston SSRda boshlangan "Paxta kampaniyasi" natijasida aholi qattiq ekspluatatsiya qilindi. Paxta rejasini bajarish uchun O'zbekistonda dehqonlar va talabalardan majburiy mehnat qilish talabi yanada kuchaydi. Qishloq xo'jaligida "qo'shib yuborish" siyosati natijasida ko'plab kichik xo'jaliklar yiriklashtirildi, bu esa qishloq aholisi orasida norozilikni keltirib chiqardi. Xurushchov respublika rahbarlariga biroz ko'proq vakolat berishga harakat qilgan bo'lsa-da, amalda markaziy hokimiyat o'z nazoratini saqlab qoldi. Yuqorida keltirib o'tilgan boshqaruvdagi salbiy oqibatlar Xurushchov tomonidan ma'muriy buyruqbozlik tizimini yumshatishga qilingan harakatlar edi. Lekin bu urinishlar O'zbekiston SSR da samarasiz bo'ldi.

Brejnev davrida esa Xrushchovning ba'zi islohotlari bekor qilinib, davlat yana qattiq markazlashgan boshqaruv tizimiga qaytdi. Bu davrda Sovet Ittifoqida "turg'unlik" davri boshlanib, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi yanada mustahkamlandi. O'zbekiston SSR paxta yetishtirish bo'yicha



SSSRning asosiy hududiga aylandi. Paxta rejasini ortiqcha bajarish uchun rasmiylar statistika soxtalashtirishga o'tishdi.

1970-yillarga kelib, O'zbekiston rahbari Sharof Rashidov markaziy hokimiyat bilan yaxshi munosabat o'rnatib, Moskva talablarini "qog'ozda" bajarishga harakat qildi. 1980-yillarning boshida bu jarayon "Paxta ishi" nomi bilan katta korrupsiya janjaliga sabab bo'ldi.

"Paxta ishi" ishi O'zbekiston SSR da nihoyatda avjiga chiqdi. Natijada bu "O'zbek ishiga" aylantirilib yuborildi. O'zbek ishi, - deb yozadi O'tkir Hoshimov 30- va 50-yillardagi qatag'onlarning mantiqiy davomidir. Sovet siyosati har 10-15-yilda kalla olib turmasa ko'ngli joyiga tushmagan. To'g'ri, o'sha paytlar O'zbekistonda qo'shib yozishlar, poraxo'rliklar bo'lgan. Buni inkor qilmaymiz. Ammo bunday harakatlar butun sobiq Ittifoqda avj olgan edi. Unday bo'lsa, nima uchun markaz ayni O'zbekistonni tanladi, degan savol tug'iladi. Buning sababi oddiy. Biz anchagina loqaydmiz, darrov qovusha qolmaymiz»¹ Ha, juda adolatli va to'g'ri aytilgan gaplar. Aslida «O'zbek ishi» degani nima o'zi va qachon paydo bo'ldi. Bu «ish» aslida 80-yillarda O'zbekiston Davlat Xavfsizlik Qo'mitasi (DXQ)ning raisi bo'lib ishlagan Melkumov (millati arman) bilan O'zbekiston KP MQning birinchi kotibi Sh.Rashidov o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklardan boshlangan. O'sha kezlarda Buxoro viloyati BXSS boshlig'i Muzaffarov va Buxoro shahar savdo idorasining direktori Qudratovlarning poraxo'rlikiga taalluqli ma'lumotlar DXQda bo'lgan. Bu shaxslar Buxoro viloyati firqa qo'mitasining irinchi kotibi A.Karimov himoyasida bo'lgan va unga «oshirib» turishgan. A.Karimov esa o'z navbanda Sh.Rashidov bilan yaqin aloqada bo'lgan. Shu bois Melkumov va uning gumashtalari o'z oldilariga Muzaffarov va Qudratovni fosh qilish orqali A.Kanmovga chiqish va so'ngra u orqali Sh.Rashidovni «nishonga» olishni mo'ljallab harakat qilganlar. 1983-yilda Buxoroda ilgaridan o'ylab rejalashtirilgan va amalga oshirilgan «operatsiya» tufayli Muzaffarov va Qudratovlar qamoqqa olindilar. Ular xalqqa ma'lum bo'lgan birinchi o'zbek millionerlari bo'li chiqdi Bu is darho Moskvag oshirildi va markazda ana shu tariqa «o'zbek ishi» paydo bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak SSSR davlati yuritgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi umuman o'zini oqlamadi. Qariyb 70 yil mobaynida hukum surgan SSSR davlati 80- yillarga kelib ma'muriy buyruqbozlik tizimi yuritish siyosati natijasida bir qancha muammolarga yuzlanabshladi. Iqtisodiy soha to'liq ishdan chiqib ketdi. SSSR o'zini mablag'bilan taminlay qoldi buning natijasida SSSR tarkibidagi respublikalarda ham turli muammolar yuzaga kela boshladi. Xususan



POLAND



POLAND

O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat nihoyatda og'ir ahvolga tushib qoldi. ma'muriy buyruqbozlik tizimi to'liq o'zini oqlamadi va SSSR ning parchalanishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шомансуров С. Ўзбекистон Совет Республикасида маъмурий-буйруқбозлик тизими ва унинг оқибатлари. – Тошкент: Фан, 2008. – 256 б.
2. Юлдашев Қ. СССРда маъмурий бошқарув тизими: шаклланиши ва инқироzi // Тарих ва замон, 2016, №1. – Б. 43–49.
3. Рой Медведев. О сталинизме и бюрократии. – Москва: Прогресс, 1990. – 320 с.
4. Хошимов Ў. Дунё шунақаси, болам... – Тошкент: Sharq, 2005. – 240 б.
5. Хван Ю.В. Хозяйственные реформы в СССР: от НЭПа до Перестройки. – Москва: Наука, 2004. – 344 с.
6. Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. – Москва: Политиздат, 1986. – Т. 1–2.
7. Ҳамидов А. Ўзбек “исҳи” тарихи ва унинг ижтимоий-сиёсий таъсири // Миллий тикланиш, 2020, №2. – Б. 88–94.
8. Urazalievna, A. G., & Fotima, X. (2024). TURKISTON QO'RBOSHILAR HARAKATI VA ULARNING FAOLIYATI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 5-10.
9. Urazalievna, A. G., & Aziza, P. (2024). FARG'ONA VODIYSIDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 12-15.
10. Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(1).
11. Маргилоний, М. А. (1999). Тарихи Азизий. Тошкент: Маънавият.
12. Сангирова, Д. Х. (2000). Тарихи Азизи. важный источник по истории изучения царского колониального периода: автореф.... канд. ист. наук. Ташкент, 1-2.
13. Sangirova, D. (2019). Hajj and the ruling pilgrims. A look at the past, (18), 27.
14. Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. (2022). Хх аsr бoshларida mirzachol vohasidagi agrar o'zgarishlar (—Туркестанское сельское хозяйство journali asosida). Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 631-634.



POLAND



POLAND

15. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). Проблемы современной науки и образования, (11 (53)), 44-45.
16. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. On the issue of religious composition of the population of Russian settlements in the Hungry Steppe (the beginning of XX century) Mirzaeva N., Rasulova M. 2 К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века).
17. Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(7), 540-545.
18. Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. Bulletin of Gulistan State University, 2021(2), 61-67.
19. Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ И НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. Вестник Российского философского общества, (1-2), 200-209.
20. Nematov, R. A. (2024, December). ESTABLISHMENT OF THE ADMINISTRATION OF THE WESTERN TURKISH EMPIRE IN THE KHORAZM OASIS. In "INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 2, pp. 43-49)

